

**MOBIL ILOVALAR ORQALI MASOFAVIY TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH*****Rustamov Hakim***

*Buxoro davlat pedagogika instituti, matematika va informatika kafedrası
dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori*

Shodiyeva Muborak

*Osiyo Xalqaro universiteti, umumtexnik fanlar kafedrası,
I bosqich magistranti*

Qahhorova Maftuna

*Buxoro davlat pedagogika instituti, matematika va informatika kafedrası
o'qituvchi*

Annotatsiya: *Masofaviy ta'lim so'nggi yillarda butun dunyoda keng tarqalgan ta'lim shakllaridan biriga aylanib borayotganligi e'tirof etilib, mobil ilovalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etayotganligi ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini interaktiv qilish hamda o'quvchilarga qulaylik yaratish imkonini berayotganligi ta'kidlanmoqda. Mobil texnologiyalar ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan birga, o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Masofaviy ta'lim jarayonida o'quv materiallarini yetkazish, bilimlarni mustahkamlash va baholash jarayonini avtomatlashtirishda mobil ilovalar muhim rol o'ynamoqda.*

Mobil ilovalar orqali masofaviy ta'lim tizimi o'quvchilarga istalgan joy va vaqtda ta'lim olish imkonini berish natijasida, nafaqat an'anaviy darslarni raqamli muhitga moslashtirish, balki o'qitish jarayonini butunlay yangi darajaga olib chiqish imkoniyatini taqdim etmoqda. Masofaviy ta'limning asosiy afzalliklari sifatida o'quvchilarning mustaqil o'rganish imkoniyati, ta'lim jarayonining moslashuvchanligi va joy hamda vaqt bo'yicha cheklovlarning kamayishi qayd etiladi. Shuningdek, o'quvchilarga o'z tezligida o'rganish imkonini berishi va individual yondashuvni ta'minlashi ham uning muhim jihatlaridandir.



Mazkur maqolada ta'lim jarayonida mobil texnologiyalarning roli, ularning afzallik va kamchiliklari hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *masofaviy ta'lim, mobil ilovalar, onlayn o'qitish, raqamli texnologiyalar, innovatsiya, ta'lim sifati, internet, interaktiv o'qitish, zamonaviy ta'lim, platformalar.*

Аннотация: *Признано, что дистанционное обучение стало одной из самых распространенных форм образования во всем мире в последние годы, и подчеркивается, что все большую значимость приобретает использование мобильных приложений, позволяющих повысить качество образования, сделать процесс обучения интерактивным и создать удобства для обучающихся. Мобильные технологии привносят инновационные подходы в образовательный процесс, а также помогают повысить эффективность обучения студентов. Мобильные приложения играют важную роль в предоставлении учебных материалов, закреплении знаний и автоматизации процесса оценки в дистанционном обучении.*

Система дистанционного обучения с помощью мобильных приложений, позволяющая учащимся учиться в любом месте и в любое время, дает возможность не только адаптировать традиционные уроки к цифровой среде, но и вывести процесс обучения на совершенно новый уровень. Основными преимуществами дистанционного обучения являются возможность самостоятельного обучения студентов, гибкость образовательного процесса, снижение ограничений по месту и времени. Другим важным аспектом является то, что он позволяет студентам учиться в своем собственном темпе и обеспечивает индивидуальный подход.

В статье дается подробный анализ роли мобильных технологий в образовательном процессе, их преимуществ и недостатков, а также направлений дальнейшего развития.

Abstract: *It is recognized that distance learning has become one of the most widespread forms of education in recent years, and it is emphasized that the use of*



mobile applications is gaining importance, allowing to improve the quality of education, make the learning process interactive and create convenience for students. Mobile technologies, along with introducing innovative approaches to the educational process, also serve to increase the efficiency of students' learning. Mobile applications play an important role in delivering educational materials, consolidating knowledge and automating the assessment process in the process of distance learning.

The distance learning system through mobile applications, as a result of which students can receive education at any place and time, not only adapts traditional lessons to the digital environment, but also provides an opportunity to take the learning process to a completely new level. The main advantages of distance learning are the ability of students to learn independently, the flexibility of the educational process, and the reduction of restrictions on place and time. It also allows students to learn at their own pace and provides an individual approach.

This article provides a detailed analysis of the role of mobile technologies in the educational process, their advantages and disadvantages, and future development directions.

Keywords: *distance learning, mobile applications, online learning, digital technologies, innovation, quality of education, internet, interactive learning, modern education, platforms.*

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta‘lim sohasi ham sezilarli darajada ijobiy o‘zgarishlarga duch kelmoqda. An‘anaviy ta‘lim shakllaridan tashqari, masofaviy ta‘lim tobora ommalashib, turli darajadagi o‘quvchilarga zamonaviy bilim olish imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Masofaviy ta‘lim texnologiyalari yordamida ta‘lim oluvchilar istalgan joydan bilim olishlari, ta‘lim jarayonida faol ishtirok etishlari va o‘zlashtirish samaradorligini oshirishlari mumkin[2].

Masofaviy ta‘limning rivojlanishida mobil texnologiyalarning roli va o‘rni beqiyos bo‘lib, asosan smartfon va planshetlar orqali ta‘lim olish osonlashib bormoqda. Ushbu qurilmalar yordamida o‘quvchilar onlayn darslarga qatnashish, interfaol topshiriqlar bajarish va elektron ta‘lim resurslaridan foydalanish imkoniga ega



bo'lmqdalar. Shu sababli, mobil ilovalar orqali ta'lim olish texnologik yutuqlarning eng samarali yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan birga mobil ilovalar ta'lim tizimida muhim o'rin egallab bormoqda. Ushbu ilovalar nafaqat an'anaviy ta'lim usullarini takomillashtirishda, balki yangi metodik yondashuvlarni joriy etishda ham asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda[4].

Mobil ilovalarning ta'limga keltirgan asosiy innovatsiyalar va afzalliklarini quyidagicha keng ko'lamda ko'rib chiqish mumkin:

Mobil ilovalarning eng muhim jihatlaridan biri – bu band odamlar va uzoq hududlarda yashovchi talabalar uchun ta'lim olish imkoniyatini yaratishi. Masalan, ish joyida qat'iy grafikda ishlaydigan shaxslar, shuningdek, qishloq yoki chekka hududlarda yashovchi o'quvchilar uchun mobil ilovalar orqali darslarni istalgan vaqtda o'tish, materiallarni ko'rib chiqish va topshiriqlarni bajarish imkoniyati mavjud. Bu esa ta'limni demokratizatsiya qilishga, ya'ni har qanday ijtimoiy tabaqadagi odamlar uchun bilim olishni qulaylashtirishga xizmat qiladi.

Mobil ilovalar orqali ta'lim jarayoni faolroq, qiziqarli va samaraliroq bo'lishi natijasida ta'lim samaradorligi ta'minlanadi. Masalan: Videodarslar, animatsion tushuntirishlar, interaktiv testlar va virtual laboratoriyalar o'quvchilarning bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Bundan tashqari, avtomatik baholash tizimlari orqali o'quvchilar o'z bilim darajasini tezda aniqlashlari va zaif tomonlarini bartaraf etishlari mumkin[2].

Har bir insonning bilim olish tezligi va uslubi har xil bo'ladi. Mobil ilovalar shaxsiy ehtiyojlarga moslashuvchan ta'limni ta'minlash imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'zlariga qulay bo'lgan tempda darslarni o'tishlari, kerakli mavzularga ko'proq vaqt ajratishlari yoki tushunmovchiliklarga duch kelgan paytda qayta ko'rib chiqishlari mumkin. Bu esa an'anaviy sinf darslarida mavjud bo'lmagan individual yondashuvni amalga oshiradi[5].

Mobil ilovalar yordamida o'qituvchilar o'quvchilarning bilim darajasini va darslarda qatnashishini avtomatik ravishda kuzatishlari ham ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Misol uchun, topshiriqlarni topshirish muddatlari, testlardagi



natijalar, faollik darajasi kabi ko'rsatkichlar asosida har bir talabani rivojlanishini tahlil qilish mumkin. Bu esa pedagoglarga har bir o'quvchi bilan alohida ishlash imkoniyatini beradi.

Mobil ilovalar orqali o'qituvchilar va o'quvchilar videoaloqa platformalari (Zoom, Google Meet, Microsoft Teams) yordamida real vaqt rejimida dars o'tishlari mumkin. Bu an'anaviy sinf muhitini virtual shaklda takrorlash imkoniyatini beradi.

Darsliklar, maqolalar, ilmiy ishlar va multimedia materiallari mobil ilovalarga yuklangan holda, o'quvchilar ularga istalgan vaqtda kirishlari mumkin. Bu xususiyat ayniqsa kitoblar va qo'llanmalarga kirish imkoniyati cheklangan hududlarda yashovchilar uchun foydalidir[3].

Mobil ilovalarda testlar, viktorinalar va interaktiv savollar orqali o'quvchilarning bilim darajasi muntazam ravishda tekshirilishi ta'lim sifatini va ta'labalar ma'sulyatini oshiradi. Ba'zi ilovalarda sun'iy intellekt yordamida javoblarni tahlil qilish va individual tavsiyalar berish imkoniyati talabalarni yanada ko'proq mustaqil mustaqil ishlashga undaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, mobil ilovalar ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar ochib, bilim olishni qulay, samarali va qiziqarli qilmoqda. Biroq, internet infratuzilmasini yaxshilash, sifatli elektron resurslar ishlab chiqish va o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini oshirish kabi muammolar hal etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Abdurahmonov, A., & Xolmirzayev, B. Mobil ta'lim ilovalarining rivojlanish tendensiyalari. Zamonaviy Ta'lim Texnologiyalari, . 2023. 12(4), 45-58.
- 2.Karimov, S., & Yusupova, M. Masofaviy ta'limda gamifikatsiyaning o'ri. Pedagogika va Innovatsiyalar, 2022. 7(2), 112-125.
- 3.Smith, J., & Brown, L. The Impact of Mobile Learning Apps on Student Engagement. Journal of Educational Technology, 2021. 39(3), 78-92.
- 4.To'xtayeva, N., & Qodirov, F. O'zbekistonda raqamli ta'limni rivojlantirish: muammolar va yechimlar. Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, 2020. 15(1), 34-47.
- 5.UNESCO.. Global Trends in Digital Education: Policy Recommendations. Education Technology Reports, 2023. 5(1), 1-20.